ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№2(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari ........ 22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna

O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida ........ 26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna

Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil ........ 29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish ........ 33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish ........ 37
Nusharov Bobir Bolbekovich

Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя ........ 41
Олимова Азиза Кахрамоновна

"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari ........ 47
Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi

Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari ........ 50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich

Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari ........ 54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi

Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi ........ 59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli ........ 64
Botirova Lobar Kamolovna

O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ........ 69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlarga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish ........ 73
Ergasheva Nigora Erkinovna

Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects ........ 76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li

Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni ........ 85
Baxramova O'ramol Uralovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati ........ 88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna

Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari ........ 92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich

Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli ........ 96
Ergasheva Mehriyona

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari ........ 100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi

The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies ............. 104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi

Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili ............ 109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna

Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi ..................... 112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi

Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations ............ 116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .................... 123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi

Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi ............ 126
Shermatova Yakut Sabirovna

O'smirlar o'rtasida kiberbulling ............ 129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish ............ 132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna

Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli ............ 135
Turdiyeva Zilola Jalilovna

Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni ............ 138
Xalikova Umida Mirovna

Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni ............ 143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi

Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash ............ 148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi

О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования ............ 153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



# UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALAR UCHUN TYUTORLIK YORDAMINI TASHKIL ETISH

Tolipova Pokiza Xasan qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Surdopedagogika ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi

Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari kafedrasi dotsent v.b.(PhD)
**ORCID: 0009-0009-3016-1626**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashda tyutorlik yordamining ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Gospital pedagogika sharoitida tyutor faoliyatining mazmuni, bolaning sog'lig'i va psixoemotsional holatidan kelib chiqib individual ta'lim yo'nalishini tuzish masalalari tahlil qilingan. Maqolada tyutorning tibbiyot xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlari, shuningdek, bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasini ta'minlash yo'llari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tyutor, uzoq muddatli davolanish, gospital pedagogika, individual hamrohlik, reabilitatsiya, ta'limiy reabilitatsiya, individual ta'lim yo'nalishi.

**Abstract:** This article explores the significance and characteristics of tutor support in ensuring the right to education for children requiring long-term medical treatment. It analyzes tutor activities within hospital pedagogy, focusing on the development of individual educational pathways based on the child's health condition and psychoemotional state. The article outlines cooperation mechanisms between tutors, medical staff, and parents, as well as strategies for the social rehabilitation of students.

**Key words:** tutor, long-term medical treatment, hospital pedagogy, individual support, rehabilitation, educational rehabilitation, individual educational pathway.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются значение и специфика тьюторской помощи в обеспечении права на образование детей, нуждающихся в длительном лечении. Анализируются аспекты деятельности тьютора в условиях госпитальной педагогики, включая разработку индивидуальных образовательных маршрутов с учетом состояния здоровья и психоэмоционального состояния ребенка. Описываются механизмы взаимодействия тьютора с медицинским персоналом и родителями, а также пути социальной реабилитации обучающихся.

**Ключевые слова:** тьютор, длительное лечение, госпитальная педагогика, индивидуальное сопровождение, реабилитация, образовательная реабилитация, индивидуальный образовательный маршрут.

## KIRISH

O'zbekistonda xorijiy davlatlar amaliyotiga suyanib, uni o'z amaliyotida qo'llashni asos qilib olgan o'qituvchilar "tyutorlar" hisoblanadi. Bugungi kunda "tyutorlar" lavozimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'limga muhtoj bolalarni o'qitish va tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son[1] qarori bilan rasman belgilangan. Hozirgi vaqtda pedagogik atamalar orasida "bolalarga tyutor yordami" tushunchasidan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ta'lim olishda muammolarga duch kelgan bolalar pedagogik yordamga juda muhtojdir. Muammolarning sabablari bolaning jismoniy, aqliy va psixologik rivojlanish xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Bizning ishimiz uchun "tyutor" yordami alohida ahamiyatga ega. Tyutor yordami yordamga muhtoj bolaga ko'rsatiladigan pedagogik yordamni nazarda tutadi.O.S. Gazman pedagogik qo'llab-quvvatlashni quyidagicha tasavvur qilgan: Bola bilan uning manfaatlarini, maqsadlarini, imkoniyatlarini va insoniy qadr-qimmatini saqlashga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni

1 https://lex.uz/docs/-5044711

(muammolarni) yengish yo'llarini birgalikda aniqlash hamda mustaqil ravishda mashg'ulotlarda, o'z-o'zini tarbiyalashda, muloqotda, turmush tarzida kerakli natijalarga erishish jarayoni", deb ta'kidlagan. Zamonaviy ta'lim tizimida insonparvarlik tamoyillari asosida har bir bolaning, uning sog'lig'idan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqi kafolatlangan.

Biroq, onkologik, gematologik va boshqa og'ir xastaliklar tufayli uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uzoq vaqt davomida an'anaviy ta'lim muhitidan uzilib qolmoqdalar. Bu holat nafaqat bilimlarni o'zlashtirishda ortda qolishga, balki bolada ijtimoiy izolyatsiya va psixologik tushkunlik yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. Shu sababli gospital pedagogika sharoitida tyutorlik yordamini tashkil etish, bolaning davolanish jarayoniga xalaqit bermagan holda uning ta'limiy va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

**Tadqiqot obyekti:** uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar hamda ular uchun ta'limni, shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonini tashkil etish.

**Tadqiqot predmeti:** gospital pedagogika sharoitida tyutorlik yordamini tashkil etish usullari, shakllari va pedagogik texnologiyalar.

**Tadqiqot maqsadi:** uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etishning nazariy asoslarini o'rganish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

**Tadqiqot vazifalari:**

1) mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
2) tyutorlik hamrohligining bosqichlarini belgilash;
3) davolanish sharoitida individual ta'lim yo'nalishini (ITYo) shakllantirish xususiyatlarini aniqlash;
4) tyutor, tibbiyot xodimlari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik modelini asoslab berish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchi T.V. Yegorovaning fikricha, imkoniyati cheklangan bolalar – bu sog'lig'ining holati maxsus ta'lim va tarbiya sharoitlarisiz ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga to'sqinlik qiladigan bolalardir [3]. Uzoq muddatli davolanishdagi bolalar aynan shu toifaga kirib, ularga gospital sharoitda alohida yondashuv talab etiladi.

M.R. Bityanovaning fikricha, hamrohlik qilish – bu psixologik va pedagogik amaliyot maqsadlarini birlashtirishga imkon beradigan hamda asosiy e'tiborni bolaning shaxsiga qaratadigan o'ziga xos ish mafkurasi hisobladi. Hamrohlik qilishning bosh maqsadi – har bir bola o'z hayotining subyektiga aylanishi mumkin bo'lgan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdir [2].

Tyutor tushunchasiga N.V. Shramko quyidagicha ta'rif beradi: "Tyutor – individual ta'lim yo'nalishi va individual ta'lim makonini yaratish orqali ta'lim oluvchining shaxsiy, ijodiy va psixologik rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan pedagog-ustozdir" [5]. Bu ta'rif kasalxona sharoitida bolaning kognitiv funksiyalarini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Ye.B. Kolosovaning nuqtayi nazariga ko'ra, tyutorlik hamrohligi bolaga uning uchun qiyin bo'lgan vaziyatlarda yordam berish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan, ketma-ket va puxta o'ylangan faoliyatdir. Uning fikricha, bunday faoliyat "qo'llab-quvvatlash pedagogikasi" g'oyalariga asoslanishi kerak [4].

Shuningdek, ko'plab adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ota-onalar, pedagog xodimlar va tyutorlar o'zaro hamkorlikda ishlashi o'quvchilarning bilim olish jarayonida vujudga keladigan turli qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi. Bolalar, ota-onalar, pedagoglar va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi o'zaro aloqa kasalxona maktablaridagi o'quv jarayonining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi. Bunday maktablarda o'quvchilarning sog'lig'i tufayli kasalxonalarda uzoq muddat davolanayotganligi ularning ta'lim olishga bo'lgan ehtiyoji maxsus yondashuvni talab qilishini anglatadi [2,6]. Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordami uchta asosiy komponentdan iborat:

1. **Adaptatsiya:** ta'lim muhitini bolaning palatasi yoki maxsus o'quv xonasiga moslashtirish.
2. **Individualizatsiya:** bolaning somatik holatiga (charchoq, muolajalar vaqti) qarab dars jadvalini elastik tarzda tuzish.
3. **Koordinatsiya:** tibbiyot xodimlari, fan o'qituvchilari va ota-onalar o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlash.

T.V. Timoxina ta'kidlaganidek, tyutorlik taktikasi bolaning sotsializatsiyasi uchun qulay sharoit yaratish va o'qishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi [6]. Davolanish jarayonida tyutor nafaqat ustoz, balki bolaning hayotga bo'lgan ishtiyoqini saqlab turuvchi motivator rolini ham bajaradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan tadqiqotda uzoq muddatli davolanishda boʻlgan bolalarga individual [Prevatt, F. F., 2000.], moslashuvchanlik [Yates, P., et al., 2016.] taʼlim texnologiyalaridan foydalanildi. Xususan, gospital pedagogikaning xalqaro standartlari [Bray, M., 2021.] va "Taʼlim toʻgʻrisida"gi qonun hujjatlari asosida tyutorning funksional vazifalari tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, uzoq muddatli davolanishda boʻlgan zaif eshituvchi bolalar uchun F.F. Prevatt (2000) konsepsiyasiga tayangan holda bolalar kasalligining oʻziga xos xususiyatidan kelib chiqib individual dars jarayoni tashkil etildi. Ushbu darslarda turli metodik texnologiyalardan foydalanildi. Foydalanilgan metodikalar anʼanaviy dars jarayoniga nisbatan 25 foizga yuqori samaradorlik koeffitsientini namoyon etdi. Shuningdek, uzoq muddatli davolanishda boʻlgan zaif eshituvchi bolalar uchun moslashuvchan dars rejalari ishlab chiqildi. Darslarda uzoq muddatli davolanish jarayonidagi oʻquvchilar uchun taʼlim samaradorligini belgilovchi asosiy omillar tanlab olindi.

P. Yates (2016) metodologiyasi asosida dars mazmuni va surʼati bolaning jismoniy hamda ruhiy holatiga moslashtirilib tashkil etildi, bu esa oʻz navbatida uzoq muddatli davolanishda boʻlgan zaif eshituvchi bolalar uchun oʻquv materialini oʻzlashtirishga sezilarli darajada taʼsir etdi. Bu yondashuv bolaning kasallik dinamikasiga qarab taʼlim yuklamasini optimallashtirishni 15 % ga oshirdi.

## XULOSA

Tahlillar natijalariga tayangan holda uzoq muddatli davolanishda boʻlgan zaif eshituvchi bolalar uchun tashkil etilgan tyutorlik faoliyati shuni koʻrsatadiki, tyutorlik yordami uzoq muddatli davolanishdagi bolalarning taʼlimdan uzilib qolishining oldini oladi va taʼlim olishiga koʻmaklashadi, ITYo (Individual taʼlim yoʻnalishi) bolaning salomatligi dinamikasiga qarab muntazam oʻzgarib turishi ularga taʼlim olishiga yengillik yaratadi. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, tyutorlik faoliyati yordamida bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, shuningdek, taʼlim samaradorligi oshadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. Bray, M. Shadow Education in Africa: Private Supplementary Tutoring and Its Policy Implications // Journal of Education. – 2021. – P. 171–181.
2. Inogamova, D.R. History of the Development of Hospital Pedagogy in Developed Countries and in the Republic of Uzbekistan // Журнал "Экономика и социум". – 2024. – Т-3. – С. 118.
3. Yates, P., et al. Child: Care, Health and Development. – 2016. – Vol. 42(3). – P. 378–386.
4. Prevatt, F.F., et al. Journal of School Psychology. – 2000. – Vol. 38(5). – P. 447–467.
5. Битянова М.Р. Организация психологической работы в школе. – М.: Совершенство, 2000.
6. Егорова Т.В. Социальная интеграция детей с ограниченными возможностями. – Балашов, 2002.
7. Колосова Е.Б. Тьютор как новая педагогическая профессия. – М.: Чистые пруды, 2008.
8. Nishonov U., Tursunov I. "Pedagogika kursi". – Toshkent, 1997-y.
9. Основы тьюторства: курс лекций / Н.В. Шрамко. – Екатеринбург, 2018.
10. Тимохина Т.В. Тьюторство в сопровождении обучаемого. – Москва, 2018.
11. Karimov, B.I. The Importance of Organizing the Tutor's Activity // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2025. – Vol. 12, Issue-04.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №2(2)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.